

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 197 (1258), 2024-yil 27-sentabr, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH VA SA'Y-HARAKATLARNI SAMARALI MUVOFIQLASHTIRISHGA ALOHIDA E'TIBOR QARATILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-sentabr kuni

Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi Siyosiy byurosi a'zosi, Siyosiy-yuridik komissiyasi kotibi Chen Vensin boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Delegatsiya rahbari Chen Vensin davlatimiz rahbariga Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi do'stlik va barcha sharoitlarda strategik sheriklik munosabatlarini oliy darajada qabul qilingan qarorlar asosida rivojlantirish va mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik, kiberjinoyatchilik, narkotrafik kabi xavfsizlikka tahdid solayotgan an'anaviy va yangi xatarlarga qarshi kurashda amaliy hamkorlikni kengaytirish va sa'y-harakatlarni samarali muvofiqlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Shu kunlarda bo'lib o'tgan Huquqni muhofaza qilish faoliyati va xavfsizlik sohasidagi O'zbekiston — Xitoy hamkorlik mexanizmining birinchi yig'ilishi natijalari yuqori baholandi.

Shuningdek, mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O'ZA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmatlari surati.

VOSIT VOHIDOV NOMIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN XIRURGIYA MARKAZI JAMOASIGA

Qadrlı yurtdoshlar!

Avvalo, siz, azizlarni bugungi qutlug' sana — akademik Vosit Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilganining 50 yilligi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

O'zbekistonda jarrohlik bo'yicha yetakchi va nufuzli muassasa hisoblangan ushbu Markaz ko'p millatli ahl jamoasining fidokorona mehnati bilan mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida alohida o'rin egallab kelayotganini barchamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Bugungi quvonchli ayyomda Markazni tashkil etish, uning tibbiy salohiyatini oshirishda beqiyos xizmatlar qilgan tabarruk insonlar, xususan, xalqaro miqyosda tan olingan atqoli olim Vosit Vohidovning xotirasini hurmat-ehtiram bilan yodga olamiz. O'zbekiston tibbiyot ilmidagi yorqin iz qoldirgan ana shu fidoyi va jonkuyar insonning sa'y-harakatlari bilan Markaz faoliyati samarali yo'lga qo'yilib, yangi diagnostika va davolash usullari klinik amaliyotga birinchilardan bo'lib joriy etildi.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli hozirgi kunda Markaz faoliyati yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, dunyoning yetakchi ilmiy markazlari bilan yaqin hamkorlikda ish olib borilmoqda. Tibbiy diagnostika va davolashning ilg'or va samarali usullari keng tatbiq etilmoqda.

Ayniqsa, so'nggi yillarda mazkur shifoxonada 200 dan ortiq yangi jarrohlik amaliyoti joriy etilib, qorin va ko'krak sohasi hamda yurak-qon tomir kasalliklari bo'yicha eng murakkab va yuqori texnologik operatsiyalar bajarilayotgani diqqatga sazovordir.

Bu haqda so'z yuritganda, yurtimizda ilk bor shu maskanda yo'lga qo'yilgan tajriba asosida

1 ming 500 ta buyrak va jigar ko'chirib o'tkazish operatsiyasi, jumladan, tumanlarda 200 ta buyrak transplantatsiyasi amalga oshirilganini ta'kidlash lozim.

Hech shubhasiz, bunday natijalarga erishishda mamlakatimizda xirurgiya xizmatini isloh etish, hududlarda uning sifatini oshirish va ko'lamin kengaytirish, Markaz va uning filiallari moddiy-texnik bazasi hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlash borasidagi ishlar muhim omil bo'lmoqda.

Muhim omil bo'lib, og'ir xastalıklardan aziyat chekayotgan qancha-qancha yurtdoshlarimiz ko'p vaqt va mablag' evaziga xorijdagi klinikalarga borish azobidan qutulib, o'zimizda davolamoqda.

Fursatdan foydalanib, o'z hatotini inson salomatligini saqlashdek g'oyat olijanob ishga bag'ishlagan Markazning butun jamoasiga — hurmatli professor va tadqiqotchilar, mohir jarroh va shifokorlar, jonkuyar hamshiralari, mutaxassis xodimlarga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Albatta, Markaz va uning mintaqaviy filiallari, tuman tibbiyot birlashmalarining xirurgiya bo'limlarini modernizatsiya qilish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sizlarning mashqatli mehnatining rag'batlantirish kelgusida ham doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Siz, azizlarni bugungi quvonchli ayyom bilan yana bir bor samimiy qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, sharafli va mas'uliyatli faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

MA'RIFATLI VA IQTISODIY YUKSAK JAMIYAT BARPO ETISH G'OYASI MUSTAHKAMLANMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 26-sentabr kuni qurilish, ta'lim, turizm va sanoat sohaslaridagi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Ma'lumki, joriy yil 3-aprel kuni Yangi Toshkent shahrida ilk inshootlar qurilishi boshlangandi. Davlatimiz rahbari bu ulkan loyiha ilm-fan va ma'naviyat maskanlaridan boshlanayotganiga urg'u berib, "Bular ma'rifati jamiyat barpo etish g'oyamizning asosi va namunasi bo'ladi", degan edi.

Shulardan biri — Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Adabiyot muzeyi va Milliy maqom markazini o'z ichiga olgan majmuadir. U jahonga mashhur "Zaha Hadid architects" kompaniyasi tomonidan loyihalashtirilgan. Bo'lajak majmua o'ziga xos dizayni va funksionalligi bilan diqqatga sazovor. Unda estetika va qulaylik mohirona birlashtirilib, atrof-muhit bilan uyg'unlik hosil qiladi. Shu jihatlar bilan majmua kelgusida xalqaro turizm maskanlaridan biriga aylanadi.

Yangi Toshkent uchun yana bir salohiyatli go'sha — Chirchiq daryosi. Aholi va mehmonlarga zamonaviy sharoitlar yaratish maqsadida uning 6 kilometrqa yaqin qismida dam olish hududi barpo etish mo'ljallangan. Dunyo uchun qing'og'lar tartibga keltirilib, ko'klamzorlashtiriladi. Mehmonxonada,

sog'lomlashtirish va ko'ngilochar maskanlar quriladi.

Keyingi yillarda O'zbekistonning UNESCO bilan hamkorligi yanada mustahkamlanib bormoqda. Ushbu nufuzli tashkilot Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi 2025-yilda Samarqand shahrida o'tkazilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 15-martdagi qaroriga muvofiq, bunga tayyorgarlik boshlab yuborilgan.

Taqdimotda shu borada amalga oshirilayotgan ishlar hamda rejalarda taqdimot berildi. Xususan, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jang'armasi, UNESCO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi va boshqa tashkilotlar hamkorligida Samarqand shahridagi madaniy meros obyektlarini asrash, ular bo'yab sayohatlar va ko'rgazmalar tashkil etish choralarini ko'rilmoqda. Mehmonxonalar va tadbirlar o'tkaziladigan joylarda barcha sharoitlar yaratiladi. Sessiya ishtirokchilarining kelib ketishi, madaniy tadbirlar, transport va tibbiy xizmatlar muvofiqlashtirib boriladi.

Ijtimoiy sohadagi eng katta yo'nalishlardan biri bu ta'lim. Aholisining ko'pchiligi yosh

bo'lgan mamlakatimizda uning barcha bosqichlari izchil rivojlantirilmoqda. Xususan, oliy ta'limda ham yangi maskanlar qurilib, sharoitlar yaxshilanmoqda.

Buxoro davlat universitetida 21 mingdan ziyod yoshlar o'qiydi, 10 ta fakultet, 8 ta yotoqxona bor. Lekin binolar shaharning turli hududlarida tarqoq joylashgan bo'lib, o'qituvchi va talabalarga noqulayliklar tug'dirmoqda.

Shu bois, Buxoro shahriining chekkasida universitet uchun yangi kampus qurish rejalashtirilmoqda. 43 gektarda loyihalashtirilayotgan majmuada barcha fakultetlar, ma'muriyat, yotoqxonalari, laboratoriyalar, kutubxona, stadion, sport zali va amfiteatr yaxlit joylashadi. Dars va amaliyot uchun zamonaviy sharoitlar yaratiladi. Yotoqxona o'zining 3 mingtadan 6 mingtaga oshadi. Bo'sh maydonlarga daraxtlar ekilib, bog' barpo etiladi.

Xiva shahri yurtimizning turizm manzillaridan biri. So'nggi yillardagi buniyodkorlik ishlari natijasida uning salohiyati yanada oshdi. Bu yerga keluvchilarga qulaylik

yaratish maqsadida poyezd vokzali yonida yo'l o'tkazgich barpo etish mo'ljallanmoqda. Loyihaga ko'ra, 450 metrlik bu yo'l transportlar qatnovini alohida tashkil etish imkonini beradi, vokzal va Ichan qal'a o'rtasida piyodalar xavfsiz harakatlanadi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni takomillashtirish, amaldagi ishlarning sifatini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Taqdimotda Toshkent shahrida investitsiya dasturlarining bajarilishi haqida ham axborot berildi. Qayd etilgandek, joriy yilning o'tgan davrida 2 milliard dollar qiymatidagi investitsiyalar o'zlashtirilgan. 200 ga yaqin sanoat loyihalari foydalanishga topshirilib, 25 mingdan ziyod ish o'zini yaratilgan. Jumladan, Yangi hayot tumanidagi texnoparkda 46 ta korxonada tashkil etilmoqda.

Prezidentimiz yil yakunigacha mo'ljallangan loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirish, energiya tejamkorlikka alohida ahmiyat qaratish zarurligini ta'kidladi.

O'ZA

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI VA MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI SAYLOVI KUNI

SAYLOV 2024 27-OKTABR MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

Mazkur maqola O'zbekiston Xalq demokratik partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

O'ZBEKISTON ELEKTROTEXNIKA XABIGA AYLANA OLADIMI?

Bir necha o'n yillar avval yurtimizda mashhur milliy brend ostida elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarila boshlagani ko'pchilik tomonidan hayrat bilan kutib olindi. Brend asta-sekin kengayib, mahsulotlar turi ko'payib bordi. Ammo uning sifatiga aholi to'la ishonch bildirmadi, ichki bozorda qimmat bo'lsa ham xorijnikiga talab yuqori bo'lib turaverdi.

Kundalik turmushda foydalaniladigan maishiy texnika vositalari uzoq xizmat qilishi uchun chet elni kuni olishimiz kerak, o'zimizniki esa talabga javob bermasdi. Qolaversa, milliy mahsulotlar bozorida raqobat ham yo'q, qayerga qaramang, bir nomdagi brendni uchratish mumkin edi.

Keyingi yillardagi yurtimiz mahalliy sanoati rivojiga nazar solinsa, aynan elektrotexnika tarmog'idagi katta o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. So'nggi yetti yilda sohaga 1 milliard dollar investitsiya kiritilgan. Natijada 762 ta korxonada ishga tushirilib, 45

turdagi yangi mahsulot tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Ishlab chiqarish hajmi 1,8 barobar o'sgan. Sohada mahalliy lashtirish ko'rsatkichi bir necha barobar ortgani, ichki bozorni egallayotgan milliy brend mahsulotlarimiz xorijga ham faol eksport qilinayotgani katta yutuqlarimizdan. Hozir mahsulotlar nomi ham xilma-xil va aksariyati o'zimizda ishlab chiqarilmoqda. Qaysidir korxonada har 15 soniyada bitta muzlatkich tayyor bo'lishi ham lof emas, ishonavering.

Davomi 4-betda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

AKADEMIK V.VOHIDOV NOMIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN XIRURGIYA ILMIIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZINING 50 YILLIGI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH XODIMLARNI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini xalqaro andozalar asosida rivojlantirish, aholi salomatligini ishonchli muhofaza qilish borasidagi ko'p yillik samarali mehnati, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni takomillashtirish, sohada zamonaviy davolash usullari va ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etish, xususan, murakkab jarrohlik operatsiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini mustahkamlashga qo'shgan munosib hisssasi, yuksak professional mahorat va malakaga ega bo'lgan mutaxassislarini tayyorlashdagi katta xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

Xaybullina Zarina Ruslanovna — Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining klinik biokimyo va mikrobiologiya bo'limi mudiri

Xaydarov Alisher Erkinovich — Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining kardioreanimatsiya va sun'iy qon aylanish bo'limi mudiri

Yarboev Rustam Raimkulovich — Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining yurak ishemik kasalliklari va uning asoratlari xirurgiyasi bo'limi mudiri, kardiolarrohi

"Do'stlik" ordeni bilan

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi" faxriy unvoni bilan

Ismailov Saydimurad Ibragimovich — Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

II darajali "Salomatlik" ordeni bilan

Gulamov Olimjon Mirzaxitovich — Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining torakoabdominal onkoxirurgiya bo'limi mudiri

Madgazyev Oleg Raxmatovich — Farg'ona viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazining torakoabdominal xirurgiya bo'limi shifokori

Rustamova Frangis Kamranovna — Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining maslahat poliklinikasi bo'limi kichik tibbiy xodimi

Shuvayeva Olga Vladimirovna — Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining tibbiyot arxivi mudiri

"Sog'lom turmush" medali bilan

Djurayeva Nigora Muxsumovna — Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining magnit rezonans va kompyuter tomografiyasi bo'limi mudiri

Kadirov Marat Jalgasovich — U.Xalmuratov nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi ko'p tarmoqli tibbiyot markazining jarrohlik bo'limi shifokori

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2024-yil 26-sentabr

SH. MIRZIYOYEV



DUNYO BO'YLAB SAYLOVLAR YILI

SAYLOV QONUNCHILIGIGA OID MUHIM O'ZGARISHLAR NIMALARDAN IBORAT?



Alisher ESHONQULOV,
Davlat boshqaruvi akademiyasi dotsenti v.b.

Joriy yil dunyo siyosiy maydonida saylovlar yili, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, 2024-yilda 64 ta davlatda Prezident va parlament saylovlari o'tkazilishi rejalashtirilmoqda. Ushbu saylovlarda 4 milliardga yaqin saylovchi qatnashishi kutilmoqda. Bu esa dunyo aholisining qariyb yarmini tashkil etadi. Eng ko'p saylovlar bo'yicha Yevropa mintaqasi 20 ta mamlakat bilan peshqadam. Shuningdek, Afrikaning 18 ta, Osiyoning 16 ta, Amerikaning 7 davlati va Okeaniyaning 4 mintaqasida ushbu muhim siyosiy jarayon o'tkaziladi.

Osiyo mintaqasining 12 ta davlatida parlament saylovi o'tkazilishi belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining yangi taraqqiyot bosqichi uchun ham yangi saylov tizimi asosida saylov o'tkaziladi.

Markaziy saylov komissiyasi 26-iyul kundan mamlakatimizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi bo'yicha saylov kampaniyasi boshlanganini e'lon qildi. Bu juda dolzarb va ahamiyatli siyosiy jarayon boshlangani hamda siyosiy partiyalar o'rtasida saylovchilarning har bir ovozi uchun bellashuv qizg'in bo'lishini

muhitda, parlament va mahalliy kengashlarning davlat hokimiyati tizimidagi o'zini va vakolatlari sezilarli darajada kuchaytirilgan sharoitda o'tkazilmoqda. O'ziga xos jihatlari quyidagilar bilan ajralib turadi.

Birinchidan, saylov yangi konstitutsiyaviy sharoitda o'tkaziladi. O'tgan yili referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada xalq deputatlari kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi, shuningdek, viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida xalq deputatlari kengashi raisi lavozimini egallashi mumkin emasligiga oid yangi norma mustahkamlandi. Bu shundan dalolat beradiki, bu yilgi saylov yakunlari bo'yicha xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri kengashlariga rais yangi saylanadigan deputatlar orasidan tanlanadi.

Ikkinchidan, Qonunchilik palatasidagi 150 ta deputatlik o'rningi teng yarmi — 75 deputat majoritar saylov tizimiga muvofiq hududiy bir

saylovni o'tkazish uchun yagona saylov okrugi tuziladi. Bunda O'zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi. Qonunchilik palatasiga bo'lib o'tadigan saylovda bir mandati saylov okruglarining har biridan 1 nafardan deputat saylanadi.

Avvalgi saylovlar to'g'richa mojaritar saylov tizimi asosida o'tkazilgan. Unda Qonunchilik palatasi deputatlari saylovni o'tkazish uchun mamlakatda tuzilgan 150 ta hududiy saylov okrugining har biridan nomzodlarning 1 nafari deputat etib saylangan.

Uchinchidan, saylov qonunchiligi ilg'or demokratik standartlarga mos ravishda tubdan takomillashtirildi. Jumladan, saylov organlarining Markaziy saylov komissiyasi boshchiligidagi yangi tizimi joriy etildi, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlarni ko'rsatishda ayollarning ulushi kamida 40 foiz bo'lishi belgilandi.

Deputatlikka nomzod saylanishi uchun saylovchilarning nisbiy ko'pchiligi ovozi olishi belgilandi. Unga ko'ra, nomzod tegishli saylov okrugi boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovoz to'plagan taqdirda deputat bo'lib saylanishi mumkin bo'ladi va shu orqali takroriy ovoz berishni tashkil etish talab etilmaydi.

To'rtinchidan, avvalgi saylovlarda ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan ko'pi (50+1), ya'ni mutlaq ko'pchilik ovozi olingan nomzod saylangan deb hisoblangan. Unda deputatlikka nomzodlar ishtirokchi saylovchilardan yarmidan ko'pining ovozi to'play olmagani taqdirda eng ko'p ovoz to'plagan 2 nomzod o'rtasida takroriy ovoz berish o'tkazilgan. Masalan, 2019-yil 22-dekabrda bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovida 25 ta saylov okrugi bo'yicha nomzodlarning birortasi ham ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilardan yarmidan ko'pining ovozi to'play olmagani sababli 2020-yil 5-yanvar kuni takroriy ovoz berish o'tkazildi.

Endi yangilangan saylov tizimi bo'yicha Qonunchilik palatasi deputatlari saylovni o'tkazish uchun 75 ta hududiy bir mandati saylov okrugi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning nisbatan ko'proq ovozi (nisbiy ko'pchilik) olingan nomzod saylangan deb hisoblanadi. Bu bilan nomzodni tanlab olish uchun avval shart etib belgilangan 50+1 qoidasi bekor bo'ldi

va vakillik organlari uchun takroriy ovoz berish instituti tugatildi. Bu, o'z navbatida, saylov o'tkazish uchun sarflanadigan mehnat resurslarini kamaytirish va moliyaviy xarajatlarni tejashga olib keladi.

Beshinchidan, saylov jarayonlariga kiritilgan yangiliklarga ko'ra, endi Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov okrugi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida 7 foiz ovozi olingan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandata ega bo'ladi. Aks holda, ushbu siyosiy partiyaga Qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rnlari taqsimlanmaydi. Bu, o'z navbatida, siyosiy partiyalar o'rtasida siyosiy raqobat ortishi, saylovchilarning oldida siyosiy partiyalar mas'uliyati oshishi, shu bilan birga, jamiyatda siyosiy ong va siyosiy madaniyat, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligi yanada yuksalishiga imkon beradi.

Oldinchi, saylov yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlangan kuchli parlamentarizm va joylarda vakillik organlarining vakolatlari sezilarli darajada kuchaytirilgan sharoitda bo'lib o'tadi. Xususan, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari amaldagi 5 tadan 12 taga, Senatda esa 12 tadan 18 taga ko'paytirildi. Parlamentning ijro etuvchi, sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat funksiyalari kengaytirildi.

Qolaversa, joriy yil saylovda Qonunchilik palatasining 150 nafar deputati, Senatning 56 nafar a'zosi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengeshining 65 nafar deputati, viloyatlar va Toshkent shahri, 208 ta tuman (shahar) kengashlari deputatlari saylanadi. Shunga ko'ra, 30 mingga yaqin nomzod, ularning 90 mingga yaqin ishonchli vakili saylov jarayonida faol ishtirok etishi hamda saylov komissiyalarining 120 mingdan ortiq a'zosi tashkilotchi sifatida, 70 mingdan ortiq mahalliy va xorijiy (xalqaro) kuzatuvchi ishtiroki kutilmoqda.

Yettinchidan, bu yilgi saylov jarayonlari to'liq raqamlashtirildi. Ya'ni "E-saylov" axborot tizimi ishga tushirildi. Bu saylov jarayonidagi oriqchiga qog'ozbozlik va sarf-xarajatlarni kamaytirish, qolaversa, saylov jarayoniga oid ma'lumotlardan tez va samarali foydalanishga xizmat qiladi. Ushbu tizim orqali saylov komissiyalarining siyosiy partiyalar, nomzodlar, kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari

bilan deyarli 60 turdagi munosabati to'liq elektron tarzda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qonunchilik palatasi deputatlari saylovlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq hududiy saylov komissiyalari vakolatlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi amalga oshirishi belgilandi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O'zbekiston Respublikasi referendumini va Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha okrug komissiyalarini tuzish amaliyoti bekor qilindi. Bu, o'z navbatida, mavjud xarajatlarni iqtisod qilish va inson resurslaridan maqsadli foydalanish imkonini yaratdi.

Ushbu jarayonlardagi yana bir muhim yangilik shuki, endi hududiy saylov komissiyalarining 3 nafarga qadar a'zosi komissiyada doimiy asosda faoliyat yuritishidir. Chunki hududiy saylov komissiyasi vazifalarining qonun talabari asosida to'laonli va sifatli ta'minlanishi ushbu a'zolarining komissiyada doimiy asosda faoliyat yuritishi bilan bevosita bog'liq. Bundan tashqari, qonunchilikda Markaziy saylov komissiyasi raisi 5 yillik muddatga saylanishi va ayni bir shaxs surunkasiga 2 muddatdan ortiq Markaziy saylov komissiyasi raisi etib saylanishi mumkin emasligi qat'iy ravishda belgilab qo'yildi.

Bugun saylov jarayonlarida 5 ta siyosiy partiya: Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, O'zbekiston Ekologik partiyasi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi tomonidan bir mandati saylov okruglari bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga 375 nafar nomzod, yagona saylov okrugi bo'yicha siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan jami 500 nafar partiya ro'yxatidagi nomzod ro'yxatga olindi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahri hamda tumanlar (shaharlar) kengashlariga har bir partiyadan nomzodlar ro'yxatga olingan bo'lib, deputatlik mandati uchun 28 ming 475 nafar nomzod kurash olib boradi. Umuman olganda, ular oldida ulkan mas'uliyat davr boshlandi.

Shu bilan birga, saylovchida ham katta mas'uliyat yuki bor. Bu mas'uliyat shuki, mamlakat taraqqiyoti yangi bosqichining keyingi besh yillik istiqboli saylovchilar tanlaydigan nomzodlarga bog'liq. Bugun fuqarolarning siyosiy madaniyati yuksaldi, kechagi saylovchidan, elektorlardan tubdan farq qiladi. Bu esa "Jamiyat — islohotlar tashabbuskori" bo'lib borayotgani isbotidir.

OIIB BUTUN MARKAZIY OSIYO UCHUN MUHIM INFRATUZILMA LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISHDA O'ZBEKISTONNING STRATEGIK HAMKORI

Xorijiy ishtirokchilar va ekspertlar 25-26-sentabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashining IX yillik yig'ilishi haqida o'z fikrlarini bildirdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashining IX yillik yig'ilishi ochilish sessiyasida ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari o'z nutqida OIIB bilan o'rta shaharlarni rivojlantirish va qishloq joylarda infratuzilmani yaxshilash bo'yicha hamkorlikning keyingi istiqbollari to'xtalib o'tdi. Ta'kidlanganidek, yaqin yillarda quyosh, shamol va gidro elektrostansiyalari, infratuzilma obyektlari va tarmoqlarini qurish, yirik "yashil" ma'lumotlar markazlarini tashkil etish ham ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga "yashil" sertifikatlar bozorini shakllantirish rejalashtirilgan. Ushbu sa'y-harakatlar Markaziy Osiyoni "yashil" energiyaning yirik eksportchisiga aylantirishga xizmat qilishi alohida qayd etildi.

Pavel SHIBEK,
Polsha moliya vazirligining xalqaro hamkorlik departamenti direktori:

— Ushbu tadbirida ko'plab masalalar qatori O'zbekiston Prezidentining ta'limga alohida to'xtalgani meni hayratda qoldirdi. Darhaqiqat, ta'lim iqtisodiyotning o'sishi uchun eng muhim omil hisoblanadi. Polsha 1989-yildan keyin juda quyi darajadan rivojlana boshlagan va ta'limga qaratilgan sa'y-harakatlar tufayli YIMni sezilarli darajada oshirishga muvaffaq bo'lgan mamlakatdir.

Menimcha, yuqori malakali ishchi kuchi zarur bo'lgan zamonaviy geosiyosiy dunyoda sifatli ta'lim dolzarb ahamiyatga ega. Rivojlanishda davom etayotgan mamlakat uchun bilimlari jamiyatga ega bo'lish muhimdir. O'zbekiston rahbarining



nutqidan mamlakatning keyingi yillarda, ayniqsa, oliy ta'lim va undan foydalanish sohasida katta yutuqlarga erishganini ko'rish mumkin.

Mark KUSSEN,
Bretton-Vuds tizimini qayta ko'rib chiqish qo'mitasi tahlil markazi direktori:

— Ushbu yirik tadbirida ishtirok etib, mamlakatimizning hozirgi rivojlanishini kuzatish men uchun qiziqarli bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti tobora tarqoqlashib borayotgan global iqtisodiyot sharoitida mamlakatning yanada yuqoriga o'sishi va barqarorlikka erishish qobiliyatiga ishonadi.

Nafaqat mamlakatimizda, balki umuman, Markaziy Osiyoda ham katta yutuqlarni ko'rmoqdaman. Investitsiyalar va infratuzilmani rivojlantirish tobora muhim ahamiyat



kasb etmoqda. O'ylaymanki, mintaqada va mamlakatimizda butun dunyo bo'ylab investitsiyalarni jalb qilishi kerak bo'lgan muhim jihatlari bor.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari singari dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas, shuning uchun o'zaro bog'liqlik va infratuzilma iqtisodiy o'sish hamda uning imkoniyatlarini ochishda muhim ahamiyatga ega. Tarix, Buyuk ipak yo'lining bir qismi bo'lgan go'zal Samarqand shahrini ko'rganimdan faxrlanaman. Ipak yo'lini tiklash nafaqat yangi investitsiyalarni jalb etish, balki aholining o'sishi va iqtisodiy rivojlanish yo'lini yaratish uchun barqaror, "yashil" va inkluziv bo'lishi kerak bo'lgan investitsiyalardir.

Li CHJEN,
Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti direktori o'rinbosari:

— Qisqa vaqt ichida yuksak darajadagi yirik xalqaro anjumanlarning e'tirof etilgan markazlaridan biriga aylangan go'zal va betakror Samarqand shahri dunyoning turli burchaklaridan kelgan xorijlik mehmonlarni yana kutib oldi. Jumladan, 25-sentabr kuni ushbu qadim kentda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashining yillik yig'ilishi ochilishi bo'lib o'tdi va unda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

O'zbekiston rahbari o'z nutqi bilan dunyoning 100 dan ortiq davlatidan 2 mingga yaqin delegat ishtirok etgan mazkur xalqaro tadbirning barcha ishtirokchilariga kuch va shijoat bag'ishladi. Anjumanda qatnashayotgan ishtirokchilar soni 2015-yilda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki

tashkil etilganidan buyon Markaziy Osiyo mintaqasida ilk bor o'tkazilayotgan mazkur tadbirning global ahamiyatidan dalolat beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev jahondagi bugungi vaziyatga qisqacha to'xtalib, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yutuqlari va mamlakat oldida turgan strategik vazifalar bilan tanishtirdi. Shuningdek, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki bilan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

O'z-o'zidan ayonki, OIIB nafaqat mamlakat, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun muhim sanalgan qator infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda O'zbekistonning strategik hamkoriga aylandi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi ishlarga qo'shayotgan hissasini yuksak qadrlashini ta'kidlagani bejiz emas.



Kozim NIYOZ,
Pokiston Iqtisodiy ishlar vazirligi kotibi:

— 25-26-sentabr kunlari O'zbekistonda bo'lib o'tgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashining yillik yig'ilishida ishtirok etish Pokiston va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi. Uchrashuvda barqaror infratuzilmani rivojlantirish, toza energiya va raqamli transformatsiya masalalariga bag'ishlangan asosiy sessiyalar bo'lib o'tdi. Bu mavzular, ayniqsa, Pokistonga tegishilligi bilan yanada muhimdir.

Tadbirida transport va energetika infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan loyihalarini moliylashtirishning yangi imkoniyatlari, shuningdek, barqaror shaharlarni rivojlantirish dasturlari muhokama qilingan sessiyada ishtirok etdim.

OIIB O'zbekistonning asosiy hamkori bo'lib, fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash, ish o'rnlarni yaratish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan ulkan infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashayotganini iqtisodchi sifatida, ayniqsa, yuqori baholayman.



FAROVONLIKKA XIZMAT QILADIGAN DASTUR

XALQ DEMOKRATIK PARTIYASINING SAYLOVOLDI DASTURI HAQIDA

O'zbekiston

XDP

Xalq demokratik partiyasi

Bugun dunyo miqyosida bir tendensiya qaror topmoqda. Bu ijtimoiy siyosat har bir davlat rivojlanishi va boshqaruvining, ta'bir joiz bo'lsa, tayanch ustuniga aylanayotganidir. Darhaqiqat, jamiyatdagi turli shaxslar hamda guruhlar o'rtasidagi tenglikni tartibga solishda, ijtimoiy adolat va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda uning o'rni beqiyos.

Ijtimoiy adolat hukmron bo'lgan davlat barpo etishni o'zining eng oliy maqsadi deb bilgan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan g'oya va tashabbuslar aynan shu jihatga qaratilgan.

Saylovoldi dasturimizda partiyaning siyosiy maydondagi so'l pozitsiyasiga xos va mos ravishda ijtimoiy-demokratik g'oyalarni ifodalovchi vazifalarga alohida ustuvorlik berilgan.

Bu yilgi saylovoldi dasturimizdan 10 ta yo'nalishda 15 ta strategik qadamdan iborat ustuvor maqsadlar o'rin olgan.

BIRINCHI YO'NALISH. Ijtimoiy barqarorlikning tayanchi bo'lgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga intilamiz!

Ushbu yo'nalishda har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratish, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish, kambag'allikni qisqartirish, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai bilan ta'minlash bo'yicha samarali siyosatni amalga oshirishni maqsad qilganmiz. Shu bois, davlat aholi manfaatlarini to'laqonli ta'minlash maqsadida kuchli ijtimoiy siyosat yuritishi lozim, deb hisoblaymiz.

Mazkur yo'nalishdagi tashabbuslar 3 ta strategik qadamda o'z ifodasini topadi.

1-QADAM. Har bir shaxsning Konstitutsiya bilan kafolatlangan ijtimoiy huquqlari adolati va samarali amalga oshirilishini ta'minlash.

Avvalo, parlamentdagi fraksiyamiz ijtimoiy ta'minot va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlarini yangi normalar bilan to'ldirish orqali Ijtimoiy kodeksni qabul qilishni maqsad qilgan.

Davlat o'z fuqarolari uchun g'amxo'rlik qilishi kerak. Shu maqsadda imtiyozga ega bo'lgan fuqarolardan tashqari boshqa og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolar toifalarini va ularga ko'rsatiladigan yordam turlarini qonunchilikda aniq belgilash lozim. Davlat unga g'amxo'r ekanini anglagan fuqaro davlatdan rozi, zarur bo'lsa unga fidoyilik ko'rsatishga ham tayyor bo'ladi. Bu davlat va fuqaro o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.

Shuningdek, birinchi qadamda har bir insonning birlamchi hayotiy ehtiyojlariga yetadigan eng kam iste'mol xarajatlarini qonun darajasida belgilash maqsadida "Eng kam iste'mol xarajatlarini belgilash tartibi to'g'risida"gi qonunni qabul qilish nazarda tutilgan.

2-QADAMDA fuqarolarning bo'lgan shaxslarning talab va ehtiyojlarini, qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash masalasi o'rin olgan.

Buning uchun milliy qonunchilikni BMTning Nogironlar uchun teng imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha standart qoidalari to'liq muvofiqdoshlashtirishga erishmoqchimiz.

Jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun obyektlar va xizmatlarning qulayligi milliy standartlarini ishlab chiqish hamda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunning alohida qismi sifatida qonun darajasida mustahkamlash belgilangan. Qolaversa, temir yo'l vokzallari, aeroport va shohbekatlarda ko'zi ojizlar uchun elektron axborot eshitish moslamalarini, svetofor va maxsus yo'laklarda nogironligi bo'lgan shaxslarni ogohlantiruvchi ovoqli elektron jihozlarini o'rnatish maqsad qilingan.

3-QADAMDA davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish nazarda tutilgan.

Mazkur yo'nalishda hayotiy zarurata aylanib borayotgan bir qator tashabbuslar o'rin olgan. Bunda ayollarga pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stavjiga bolasi 3 yoshga to'lguncha uni parvarishlash ta'tillarida bo'lish vaqtini to'liq qo'shib hisoblash kerak deb bilamiz.

Er yoki xotini vafot etganda hamda vafot etgan shaxs ko'proq pensiya olgan taqdirda ushbu pensiyani uning hayot bo'lgan turmush

o'rtog'iga o'tkazib berish (pensiyaning almashirish) tartibini joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Biz fuqarolarning jam'arib borilayotgan pensiya mablag'larini boshqarish, ularni doimiy ravishda onlayn ravishda kuzatish, bankka depozitga qo'yish orqali ko'paytirib borish imkoniyatini berish kerak deb hisoblaymiz. Jam'arib borilayotgan mablag'larni boshqarish tizimini yo'lga qo'yish va unda bevosita pensionerlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida pensionerlarni mahalliy kengashlardagi partiya guruhlarimiz bilan birgalikda shahar hududlarida yomg'ir suvlari tashishining oldini olish maqsadida drenaj tizimini qayta ko'rib chiqish, elektr jamoat transporti vositalari ulushini ko'paytirish, bepul elektr quvvatlash stansiyalarini tashkil etish uchun faol ish olib borishni maqsad qilganmiz.

Ushbu yo'nalishda mahalliy kengashlardagi partiya guruhlarimiz bilan birgalikda shahar hududlarida yomg'ir suvlari tashishining oldini olish maqsadida drenaj tizimini qayta ko'rib chiqish, elektr jamoat transporti vositalari ulushini ko'paytirish, bepul elektr quvvatlash stansiyalarini tashkil etish uchun faol ish olib borishni maqsad qilganmiz.

IKKINCHI YO'NALISHdan aholini arzon uy-joy va sifatli kommunal xizmatlar bilan ta'minlashga doir tashabbuslar o'rin olgan.

Bunda XDP fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan har kimning uy-joyli bo'lish huquqini ta'minlash, buning uchun arzon uy-joy qurilishini kengaytirishga qat'iy harakat qiladi.

Mazkur yo'nalishdagi tashabbuslar ikkita qadamda o'z ifodasini topadi. Xususan, 4-QADAMDA aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash hamda qurilish sohasida samarali nazorat o'rnatish ko'zda tutilgan.

Biz "Ijtimoiy turar joylar to'g'risida"gi qonunni qabul qilishni maqsad qilganmiz. Unda uy-joysiz, yashash sharoiti o'ta og'ir, nogironligi bo'lgan yoki oila a'zolari orasida nogironligi mavjud ayollar, oilaviy bolalar uylari bitiruvchilari uchun ijtimoiy turar joylar qurish nazarda tutiladi.

5-QADAMDA yuqoridagi tashabbuslarning mantiqiy davomi bo'lgan aholiga sifatli kommunal xizmat ko'rsatish darajasini oshirishga urg'u qaratilgan.

Kommunal xizmatlarning sifatli va o'z vaqtida bo'lishi aholi hayot tarzini osonlashtiradi. Biz kommunal xizmatlar va uy-joy fondidan foydalanish bo'yicha xizmatlar narxlarini bo'yicha tashabbuslar o'rin olgan. Xususan, shu yo'nalishdan o'rin olgan 7-qadam malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Partiyamiz tibbiy sug'urtani joriy etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida "Davlat tibbiy sug'urta to'g'risida"gi qonunni qabul qilish zarur deb hisoblaydi.

Tibbiyot sohasida sug'urta tizimining to'liq yo'lga qo'yilishi sohaga ajratilayotgan mablag'lar doirasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ulushi, aholining ijtimoiy zaif toifalari vakillarining sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlanish darajasi oshirishga, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, keksalar va onkologik kasallar uchun sifatli xizmat ko'rsatishning yuqori standartlarini ta'minlashga qaratilgan xospis tizimini rivojlantirish va "Xospis xizmatini ko'rsatish to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish kabi tashabbuslar ilgari surilmoqda.

8-QADAMDA farmatsevtika sohasida davlat nazoratini kuchaytirish, dori-darmon va protezlash vositalari hamda boshqa tibbiy-ijtimoiy xizmatlar narxlarini tartibga solishga qaratilgan g'oyalarni mujaassamlashgan.

Partiya mazkur qadamda davlat yaylov xo'jaliklari tizimini yo'lga qo'yish, ularga nisbatan davlat o'rmon xo'jaliklariga qo'llaniladigan yer va soliq imtiyozlarini qo'llash, bunda ushbu imtiyozlar hisobidan iqtisod qilinadigan mablag'larni yaylovlarni tiklash, degradatsiyadan chiqarish, yaylov o'simliklari urug'chiligi maydonlarini kengaytirish tadbirlariga sarflash masalalariga e'tibor qaratgan.

Ushbu yo'nalishda mahalliy kengashlardagi partiya guruhlarimiz bilan birgalikda shahar hududlarida yomg'ir suvlari tashishining oldini olish maqsadida drenaj tizimini qayta ko'rib chiqish, elektr jamoat transporti vositalari ulushini ko'paytirish, bepul elektr quvvatlash stansiyalarini tashkil etish uchun faol ish olib borishni maqsad qilganmiz.

Ushbu yo'nalishda mahalliy kengashlardagi partiya guruhlarimiz bilan birgalikda shahar hududlarida yomg'ir suvlari tashishining oldini olish maqsadida drenaj tizimini qayta ko'rib chiqish, elektr jamoat transporti vositalari ulushini ko'paytirish, bepul elektr quvvatlash stansiyalarini tashkil etish uchun faol ish olib borishni maqsad qilganmiz.

Ushbu yo'nalishda mahalliy kengashlardagi partiya guruhlarimiz bilan birgalikda shahar hududlarida yomg'ir suvlari tashishining oldini olish maqsadida drenaj tizimini qayta ko'rib chiqish, elektr jamoat transporti vositalari ulushini ko'paytirish, bepul elektr quvvatlash stansiyalarini tashkil etish uchun faol ish olib borishni maqsad qilganmiz.

Ushbu yo'nalishda mahalliy kengashlardagi partiya guruhlarimiz bilan birgalikda shahar hududlarida yomg'ir suvlari tashishining oldini olish maqsadida drenaj tizimini qayta ko'rib chiqish, elektr jamoat transporti vositalari ulushini ko'paytirish, bepul elektr quvvatlash stansiyalarini tashkil etish uchun faol ish olib borishni maqsad qilganmiz.

Ushbu yo'nalishda mahalliy kengashlardagi partiya guruhlarimiz bilan birgalikda shahar hududlarida yomg'ir suvlari tashishining oldini olish maqsadida drenaj tizimini qayta ko'rib chiqish, elektr jamoat transporti vositalari ulushini ko'paytirish, bepul elektr quvvatlash stansiyalarini tashkil etish uchun faol ish olib borishni maqsad qilganmiz.

Ushbu yo'nalishda mahalliy kengashlardagi partiya guruhlarimiz bilan birgalikda shahar hududlarida yomg'ir suvlari tashishining oldini olish maqsadida drenaj tizimini qayta ko'rib chiqish, elektr jamoat transporti vositalari ulushini ko'paytirish, bepul elektr quvvatlash stansiyalarini tashkil etish uchun faol ish olib borishni maqsad qilganmiz.

Ushbu yo'nalishda mahalliy kengashlardagi partiya guruhlarimiz bilan birgalikda shahar hududlarida yomg'ir suvlari tashishining oldini olish maqsadida drenaj tizimini qayta ko'rib chiqish, elektr jamoat transporti vositalari ulushini ko'paytirish, bepul elektr quvvatlash stansiyalarini tashkil etish uchun faol ish olib borishni maqsad qilganmiz.

Ushbu yo'nalishda mahalliy kengashlardagi partiya guruhlarimiz bilan birgalikda shahar hududlarida yomg'ir suvlari tashishining oldini olish maqsadida drenaj tizimini qayta ko'rib chiqish, elektr jamoat transporti vositalari ulushini ko'paytirish, bepul elektr quvvatlash stansiyalarini tashkil etish uchun faol ish olib borishni maqsad qilganmiz.

Ushbu yo'nalishda mahalliy kengashlardagi partiya guruhlarimiz bilan birgalikda shahar hududlarida yomg'ir suvlari tashishining oldini olish maqsadida drenaj tizimini qayta ko'rib chiqish, elektr jamoat transporti vositalari ulushini ko'paytirish, bepul elektr quvvatlash stansiyalarini tashkil etish uchun faol ish olib borishni maqsad qilganmiz.

Biz bunda dori va tibbiy buyumlarning narxlarini bo'yicha cheklolarni belgilash yuzasidan "Dori-darmonlar va tibbiy vositalar narxlarini davlat tomonidan tartibga solish to'g'risida"gi qonunni qabul qilish muhimligiga e'tibor qaratganmiz. Ishonamizki, dori-darmon va tibbiy vositalarning narxlarini davlat tomonidan tartibga solinishi aholini ortiqcha tashvishlardan xalos etadi.

Mazkur qadamda biz zamonaviy tibbiyot va xalq tabobatini qo'shgan holda davolash standartlarini (protokollarini) joriy etish orqali doriga qaramlikni kamaytirish tashabbusini ham ilgari suramiz.

Dasturimizdagi 9-QADAM sport va madaniyatni qo'llab-quvvatlash va ommalashtirishga qaratilgan.

Partiyamiz aholini sportga ommaviy jalb qilishni sog'liqni saqlash tizimining muhim qismi hisoblaydi. Lekin jamiyatda hamma ham professional sportchi bo'lib ketavermaydi. Har qanday kasb egasi istagan vaqtda sport bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratilishi kerak. Bu yo'lda biz workout tizimini

oziq-ovqat mahsulotlari sotilishining oldini olish va boshlang'ich sinflarda o'quvchilar sonini 20 nafardan oshirmaslik, katta sinflarda esa 24 nafargacha o'quvchi o'qitish tizimini yaratish tarafdorimiz.

Biz maktablar o'quv dasturlarida chet tillar va IT bo'yicha o'quv soatlarini keskin ko'paytirish kerak deb hisoblaymiz.

Dasturimizning **OLTINCHI YO'NALISHI** "Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti kuchli ijtimoiy siyosatning asosidir" deb nomlanadi.

Undagi 11-QADAMda iqtisodiyotda davlatning faol roli va ishtirokini saqlab qolish, kambag'allikni qisqartirish, soliq qonunchiligini takomillashtirish hamda bank-kredit sohasini rivojlantirish bo'yicha takliflar o'rin olgan.

Partiyamiz strategik ahamiyatga ega kompaniyalar ustidan davlat nazoratini saqlab qolish, ularni xususiy lashtirishni qonun darajasida taqiqlash tarafdori. Bunga sabab, energetika, transport va mudofaa sanoati kabi strategik muhim sohalar milliy xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

“

“HAR BIR INSON UCHUN IJTIMOIY TENGLIK VA ADOLAT TAMOYILLARI ASOSIDA MUNOSIB YASHASH SHAROITINI YARATISH, IJTIMOIY TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISH, MUHTOJLARGA YORDAM BERISH, KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH, AHOLINI YANGI ISH O'RINLARI VA KAFOLATLI DAROMAD MANBAI BILAN TA'MINLASH BO'YICHA SAMARALI SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNI MAQSAD QILGANMIZ. SHU BOIS, DAVLAT AHOLI MANFAATLARINI TO'LAQONLI TA'MINLASH MAQSADIDA KUCHLI IJTIMOIY SIYOSAT YURITISH LOZIM, DEB HISOBLAYMIZ.”

”

ommalashtirishni aholining sport bilan bepul shug'ullanishi uchun ajoyib yechim deb hisoblaymiz.

Saylovoldi dasturining **BESHINCHI YO'NALISHI** yoshlarning sifatli ta'lim olishiga qaratilgan.

Dasturimizda vazirlik va idoralar tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish yoki jarima solish natijasida tushadigan barcha tushumlarni to'liqligicha davlat byudjetiga yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Dasturimizdagi **YETTINCHI YO'NALISH**

IJTIMOIY
Davlat
UCHUN!

Yoshlarga sifatli ta'lim berilishi mamlakat intellektual salohiyatini yuksaltirish kafolatidir!

Biz 10-QADAMda fuqarolar barcha ta'lim muassasalarida sifatli maktabgacha, o'rta, oliy ta'lim, shuningdek, kasbiy ta'lim olishi, malakasini oshirishi uchun teng imkoniyatlar yaratishga erishmoqchimiz.

Birinchi navbatda, "Yagona ijtimoiy reyestr"da ro'yxatga olingan oila farzandlarini davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'lanadigan to'lovdan ozod qilishni nazarda tutaymiz.

Maktablarda ovqatlantirish tizimi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, zararli

"Tovar va xizmatlar narxlarining ijtimoiy maqbuligini ta'minlash — manzilli ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishi" deb nomlangan. Partiyamiz ijtimoiy ahamiyatga ega tovar va xizmatlarning narxlarini shakllantirish ustidan davlat va jamoatchilik nazoratini qat'iy o'rnatish lozim deb hisoblaydi.

12-QADAMDA ehtiyojmand aholi qatlamining kundalik zarur tovar va xizmatlardan foydalanishini ta'minlash masalasiga e'tibor qaratilgan.

Kam ta'minlangan aholi qatlami uchun kundalik zarur tovar va mahsulotlarni arzon narxlarda sotish bo'yicha **ijtimoiy do'konlar tarmog'ini** rivojlantirishni ko'zda tutaymiz.

Xususan, mintaqaviy barqaror ijtimoiy rivojlanish, muqobil energetika va zamonaviy tibbiyot sohalarida innovatsion dasturlar hamda loyihalarni xalqaro hamkorlar bilan birgalikda amalga oshirish maqsad qilingan.

Xalq demokratik partiyasining saylovoldi dasturi bilan tanishgan har bir saylovchi uning keng aholi qatlami vakillari manfaatlarini aks ettirgani, g'oya va tashabbuslar tom ma'noda vaqt sinovidan o'tgan chuqur asosga egaligi, partiyaning pirovard maqsadi xalqimiz turmush farovonligini ta'minlash ekaniga to'liq amin bo'ladi. Xalq demokratik partiyasi va deputatlikka nomzodlariga ovoz bering!

Firdavs SHARIPOV,
O'zbekiston XDP Markaziy Kengashi raisi o'rinbosari



O'ZBEKISTON XALQ DEMOKRATIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

2024-yil 27-sentabr, 197-son

O'ZBEKISTON ELEKTROTEKNIKA XABIGA AYLANA OLADIMI?



Boshlanishi 1-betda

Televizor, muzlatkich, qo'yingki, istalgan turdagi maishiy texnika vositalari tadbirkorlarimiz tomonidan yuqori sifatda ishlab chiqarilishini bir vaqtlar tasavvur ham qilolmasdik. Hozir odamlar qo'rqmasdan mahalliy elektrotexnika mahsulotlarini xarid qilayapti. Tarmoqda tadbirkorlar, eksportchilar soni kundan kunga ortmoqda. Asosiysi, elektrotexnika sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim o'sish nuqtalaridan biri, aholi bandligini ta'minlashning katta yo'nalishiga aylandi. Bitta ishlab chiqarish korxonasida o'nlab, yuzlab kishi ishlaya ham bir necha shunday korxonada qancha odamning bandligi ta'minlanishini tasavvur qilavering.

EKSPORTDA SIFAT "GAPIRADI"

Tarmoqda asosiy e'tibor tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgani bejiz emas. Boisi, aynan kichik va o'rta biznes vakillari faolligi bilan yangidan yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turli nomdagi mahalliy brendlar paydo bo'lyapti. Joriy yilning 5-sentabr kuni davlatimiz rahbari raisligida elektrotexnika sohasida ishlab chiqarish, eksport va investitsiya hajmini ko'paytirish masalalari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida shu jihat alohida tilga olindi. Bozorda raqobat ortgani esa biznes vakillarini sifatli,

aholi talabiga mos mahsulotlar ishlab chiqarishga undayapti.

Prezidentimiz joriy yilgi tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti chog'ida elektrotexnika sanoati vakillarini ham tinglab, takliflariga munosib yechimlar bergan edi. Oradan ko'p o'tmay, sanoatning mazkur yo'nalishidagi dolzarb vazifalarni ko'rib chiqishga bag'ishlangan yig'ilishda yana muammolar o'rtaga tashlandi. Biznes egalari, ishlab chiqaruvchilar takliflari tinglandi. Mutasaddirlar oldiga tarmoqdagi korxonalar bilan tizimli ishlash vazifasi qo'yildi.



Sarvar AHADOV, Toshkent shahridagi "Texnopark" korxonasi rahbari:

— Tadbirkorlik azaldan oson soha emas, buni uning ichida yurganlar yaxshi biladi. Mamlakatda biznesni rivojlantirish uchun, avvalo, qulay sharoit zarur. Bu erkin ishlash imkoniyati, sog'lom raqobat muhiti, bozorga chiqish imkoniyatlari va hokazo. Oldinlari tadbirkorni eshitadigan, muammosiga yechim beradigan tizim bo'lmagan uchun ham yurtimizda keyingi yillardagina ishlabarmonlik rivojlana boshladi. Biz uchun ochilgan jahon bozori va ishlash uchun yaratilayotgan sharoitlar katta imkoniyat. Bunga qo'shimcha tarzda davlatimiz rahbarining o'zi muammolarimizni tinglayotgani bizni yanada ishlashga undayapti.

"Texnopark" misolida oladigan bo'lsam, poytaxtda joylashgan ushbu majmua qurilishi boshlangan vaqtda uning ishlab ketishiga ko'pchilik ishonmagan. Umuman, elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarishda tadbirkorlarning o'zida ham ikkilanishlar bo'lgani rost. Ammo qat'iy qadamlar maqsadga yetkazdi. Hozir mahalliy ishlabarmonlarimiz ishlab chiqarishni muvaffaqiyatli o'zlashtirib, yaxshigina tajriba oshirdi.



Ayni paytda "Texnopark"da yiliga 5,8 million dona maishiy va sanoat elektrotexnika mahsuloti ishlab chiqarish quvvati mavjud. Bu yerda 3,7 mingdan ortiq kishi mehnat qilib, daromad topayapti. O'tgan yili 2,6 trillion so'mlik tayyor mahsulot sotilgan bo'lsa, Gretsiya, Turkiya, Rossiya, Armaniston, Gruziya, Mo'g'uliston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Afg'oniston kabi ko'plab davlatlarga 50 million dollarga yaqin eksport qilindi.

Ish faoliyatimizni yanada rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbariga bir qancha takliflar bildirdik. Jumladan, korxonamizda

lift, eskalator, kulanish uskunalari, chiller, isitish qozonlari kabi yirik sanoat mahsulotlari ishlab chiqaramiz. Ushbu tur mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish yetarli darajada muddat va mablag' talab etmoqda. Bundan tashqari, bizda ham, xaridorlarda ham aylanma mablag' yetishmasligi bois, mahsulotlarimiz omborlarda uzoq muddat turib qolyapti. Shu bois, iste'molchilar uchun yirik sanoat mahsulotlari xaridi bo'yicha qulay stavkada lizing tizimini joriy etish taklifini ham bildirdik.

Yana bir masala, Prezidentimizning tegishli farmoni bilan eksporti hajmi 20 million dollardan ortiq korxonalariga aylanma mablag' uchun 5 million dollargacha kredit berilyapti. Korxonamiz o'tgan yili 50 million dollarga yaqin mahsulot eksport qildi. Eksport hajmi oshgani sayin ko'proq aylanma mablag'ga ehtiyoj tug'ilmoqda. Ayniqsa, xorijdagi yirik savdo tarmoqlariga kechiktirib to'lash sharti bilan (90-120 kun) mahsulot sotishda aylanma mablag'ga ehtiyoj keskin ortyapti. Shu bois, yillik eksporti 50 million dollardan oshgan korxonalariga kredit miqdorini 5 million dollardan 10 million dollarga oshirishni so'radim. Davlatimiz rahbari takliflarimizni ma'qullab, ularning yechimi bo'yicha mutasaddirlarga tegishli topshiriq berdi.

Milliy brend

hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida ham yirik ishlab chiqarish quvvatlari mavjud. Hozirgi kundagi raqobat muhiti korxonalaridan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni talab etmoqda. Jahon standartlariga mos mahsulot ishlab chiqarish orqali eksport hajmini yanada oshirishga erishiladi. Bu borada ham tadbirkorlarni qo'llashga intilyapmiz. Kichik va o'rta korxonalarda standartlar joriy qilish, sertifikatlar olish, marketing tadqiqotlari o'tkazishda talab qilinadigan sarf-xarajatlarning bir qismini qoplab berish tizimi samarali yechimlardan biridir.

Zamonaviy standartlar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi bozorlarga realizatsiya qilish ham osonroq kechadi. Bu O'zbekistonda mintaqadagi elektrotexnika xabiga aylantirish bo'yicha oldimizga qo'ygan vazifamizning bir qismidir. Buning uchun hamkor va qo'shni mamlakatlarda ishlab chiqarish sanoatini tashkil etib, yurtimizdan butlovchi va ehtiyot qismlar yetkazib berish choralarini ko'rilmog'unda. Jumladan, Tojikiston va Qozog'istonga isitish qozoni, televizor, muzlatkich va sovitchiklardan tashqari suv isitkich, oshxonaga plitalari, minipech, changyutkich, oshxonaga dudo'roni, kir yuvish mashinasi kabi maishiy texnika ishlab chiqarish uchun zarur butlovchi va ehtiyot qismlar yetkazib berish hajmi oshiriladi. Rossiya va Qozog'iston bozorlariga yirik marketpleyslar orqali kirib borib, to'g'ridan to'g'ri yakuniy iste'molchiga mahsulot yetkazib berish tizimi yo'lga qo'yiladi. Natijada Rossiyaga eksport hajmini 500 million dollar, Qozog'istonga 300 million dollarga yetkazish maqsad qilingan. Bundan tashqari, avval yaxshi e'tibor berilgan Afg'oniston bozoriga ham asta-sekinlik bilan kirib boryapmiz.

Umuman, sanoatning bu yo'nalishida shu yilning o'zidayoq yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishish ko'zda tutilgan. Xususan, yil yakuniga qadar qiymati 481,7 million dollarlik 85 ta hududiy loyiha amalga oshirilib, 4,3 mingta doimiy ish o'rni yaratildi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi 31 trillion so'mga yetkazilib, 120 foiz o'sish sur'atiga erishiladi. Soha korxonalarini tomonidan 1,3 milliard dollarlik mahsulotlar eksportga yo'naltirilib, eksport geografiasini 70 ta davlatga yetkaziladi. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan elektrotexnika mahsulotlari yanada ko'proq mamlakatlarga kirib borib, milliy brendni tanitishga xizmat qiladi.



"ZARARSIZ" ISHLAB CHIQUARISH ZARUR

Elektrotexnika — katta bozor. Unga kira olgan, o'z o'mini egallagan davlatlar yaxshigina daromadga ega bo'ladi. Yurtimizda bu yo'nalishdagi eksport geografiasini so'nggi uch yilda 2 karra oshib, 62 davlatga yetdi. Ishlab chiqarilayotgan 200 turdagi mahsulotning 195 turi eksport bo'lyapti. Ammo yangi bozorlarga kirish, borlarini esa saqlab qolish oson emas.

Jahon bozorining o'ziga yarasha talablari bor. Bu talablar orasida "ekologik toza" kabi normalar mavjud. Ya'ni hozir mahsulot ishlab chiqarishning o'zi yetarli emas. Global iqlim o'zgarishlari sharoitida korxonalaridan atrof-muhitga kamroq zarar yetkazish choralarini ko'rish ham talab etilyapti. Ayniqsa, elektrotexnika sanoatida bunga zarurat yuqori. Ishlab chiqarish jarayonlarida zararli chiqindilar chiqishini kamaytirish, ularni qayta ishlashni yo'lga qo'yish shulardan biri. Ya'ni bu yo'nalishdagi muammolarga yechim topish, yangicha yondashuvlarni qo'llashning vaqti keldi.

Shuhrat UMAROV, Jizzax akkumulyator zavodi rahbari:

— Korxonamizda yiliga 1,2 million dona akkumulyator ishlab chiqariladi. Ayni paytda 670 kishi mehnat qilayapti. O'tgan yili 375 milliard so'mlik tayyor mahsulot xaridorlarga yetkazib berildi. Turkiya, Rossiya, Afg'oniston va Qirg'izistonga 3,5 million dollarlik eksport qilindi.

Avtomobilsozlik sanoati nafaqat jahonda, balki yurtimizda ham rivojlanib borayotir. Bizning asosiy xaridorlarimiz ham avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalar. Afsuski, bu yo'nalishdagi ishlab chiqarish jarayoni

atmosfera ga sezilarli zararli chiqindilarni chiqarib kelmoqda. "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishga intilayotgan mamlakatlar uchun bu jiddiy muammolardan biri.

Masalan, har yili yurtimizga 2 million dona yangi avtomobil akkumulyatori foydalanishga kirib keladi. Ularning xizmat muddati o'rtacha 2-3 yil, ayrim hollarda 5 yilgacha ham ishlashi mumkin. Natijada yiliga xizmat muddatini o'tab bo'lgan 35 ming tonna avtomobil akkumulyatori hosil bo'ladi. Lekin bizda foydalanishdan chiqqan, atrof-muhit uchun zararli bo'lgan akkumulyatorlarni qayta ishlash tartibiga solinmagan. Vaholanki, bir dona noto'g'ri utilizatsiya qilingan



akkumulyator batareyasi 200 metr kvadrat tuproq yoki 5 metr kub suvni ifloslantirishi mumkin.

Shu bois, o'z iste'mol xususiyatini yo'qotganidan keyin avtomobil akkumulyatori chiqindisini utilizatsiya qilish tizimini joriy etish taklifini bildirdim. Masalan, bir kilogramm

akkumulyator uchun Niderlandiyada 34 sent, Qozog'istonda 46 sent, Rossiyada 3 sent utilizatsiya yig'imi joriy qilingan. Davlatimiz rahbari taklifimizni tinglar ekan, bu masala bo'yicha xiri tajribasini o'rganib, avtomobil akkumulyatori chiqindisining atrof-muhitga zararini baholab, shoshmasdan qaror qabul qilish zarurligini ta'kidladi. Mutasaddirlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Umuman, bildirilgan takliflar umumiy elektrotexnika sanoati rivojiga xizmat qilishi nazarda tutilgan bilan ham ahamiyatlidir. Tadbirkorlar o'z manfaatlaridan ko'ra, tarmoq rivoji, birgalikdagi harakatlar muvaffaqiyatiga intilayotgani quvonarli. Sog'lom raqobat, bozor iqtisodiyotining talabi ham shunday — tadbirkorlarning asosiy maqsadi aholi uchun arzon, sifatli, xorij bozori uchun eksportboq mahsulot ishlab chiqarishga qaratilishi lozim. Davlat tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlayotgani boisi shunda. Buning natijasini esa bozorimiz va xonadonlarimizni to'ldirib turgan milliy brenddagi sifatli elektrotexnika mahsulotlari misolida ko'ryapmiz.

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Munosabat

"Davlat — jamiyat — inson" tamoyili yangi O'zbekiston sharoitida, avvalo, inson, keyin jamiyat va davlat ko'rinishini olganidan keyin mamlakatimizda tom ma'noda har bir fuqaro bilan individual va manzilli ishlash yo'lga qo'yildi. Bunda ilk bor kambag'allik darajasi tan olinib, uni qisqartirishga kompleks tarzda kirishildi.

Prezidentimiz raisligida kambag'allikni qisqartirish ishlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida bu boradagi ishlar tahlil etilar ekan, 2023-yil yakuni bilan kambag'allik darajasi 11 foizga tushgani e'tirof etilgan holda, oldinda turgan ustuvor yo'nalish va asosiy vazifalar belgilab berildi.

Keyingi yillarda Oltiariq tumanida bu yo'nalishda aytishga arzigulik ibratli ishlar amalga oshirildi. Ammo bu mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanib, degan xulosani bermaydi.

Bundan uch yil avval tumanimiz bo'yicha kambag'allik toifasidagi aholi soni 35 ming 700 nafarni tashkil etgan. Mamlakatimizda aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarga kasb-hunar o'rgatish, daromadli ish bilan bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb

etish borasidagi islohotlarga hamohang ravishda olib borilgan amaliy sa'y-harakatlarimiz natijasida 8,4 ming nafari kambag'allikdan chiqarildi.

Bunda aholining ushbu toifa vakillariga imtiyozli kreditlar ajratish, subsidiyal berish, kasb-hunar va tadbirkorlik yo'nalishlarida o'qitish, doimiy va mavsumiy ishlarga joylashtirish, Sayxunobod, Uychi, Zarbdor hamda G'ijduvon tumanlari tajribasi asosida bandligini ta'minlash asosiy yo'nalish sirasini tashkil qiladi.

Sohalar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, 474 oilaga imtiyozli kreditlar ajratish, 113 tasiqa subsidiya asosida yengil konstruksiyali issiqxonalar qurib berish hamda asbob-uskuna va mehnat qurollari xarid qilish,

321 oila a'zolarini kasb-hunar va tadbirkorlik yo'nalishlarida o'qitish, bandligini ta'minlash, 210 oila a'zolarini doimiy va mavsumiy ish o'rnlari joylashtirish borasida tizimli ishlar olib borilyapti. Bundan tashqari, 399 oilaning yuqoridagi sanab o'tilgan tumanlar tajribasi asosida daromadini oshirish va bu orqali tumandagi 1517 ta kambag'al oila

daromadini 1,5-2 million so'mdan oshirish bilan kambag'allik darajasini yil yakunigacha 9,8 foizga tushirishni o'z oldimizga maqsad qilib olganmiz. Bu ishlarda tuman hokimi, sektor rahbarlari yaqindan yordam berib kelyapti.

Prezidentimiz joriy yil 11-12-iyul kunlari viloyatimizga tashrif doirasida bergan ko'rsatmalariga asosan, yil yakuni bilan tumanimizdagi 1,5 ming oilani kambag'allikdan chiqarishni mo'ljallaganmiz.

Ushbu oilalarni doimiy daromadli qilish va kambag'allikdan chiqarish maqsadida barcha tashkilot rahbari o'rinosarlari, salohiyatli tadbirkorlarga 362 oila birkiritildi. Ular mavjud oilalar bilan to'g'ridan to'g'ri ishlab, qiziqish va imkoniyatlari asosida kredit, subsidiyal ajratish orqali bandligini ta'minlash, kasbga o'qitish, ekin yerlari ajratish choralarini ko'rmog'unda.

Bugungi kunda 50 tadan ortiq ish o'rni yaratgan 52 ta hamda 5 ta 200 dan ortiq ish o'rnlari yaratgan salohiyatli tadbirkorlarimiz bor. Ular bilan hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yib, har bir korxonaga o'rtacha 5 nafardan ijtimoiy himoyadagi fuqarolarni ishga joylash orqali 122 fuqaro bandligini ta'minlaymiz.



"Sayxunobod tajribasi" asosida hokim va o'rinosarlariga har bir mahallada 10 tadan kambag'al oilalarga paketlar yetkazib berish asosida 720 nafardan ortiq ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar muqim daromadga

ega bo'lmoqda. "Uychi tajribasi" bo'yicha tijorat banklari tomonidan o'zlarining aktiv mijozlari bilan uchrashuvlar o'tkazish, ularga ko'maklashish orqali ikkinchi yarim yillikda 3 mingga yaqin ish o'rnlari yaratildi. Bunda,

birinchi navbatda, "Ijtimoiy reyestr"dagi mehnatga layoqatli fuqarolarni ishga joylashtiramiz.

"Zarbdor tajribasi" bo'yicha 322,2 milliard so'mlik 23 ta loyiha amalga oshirilmog'unda. Istiqbolli loyihalar tufayli umumiy hisobda 800 dan ortiq ish o'rni yaratildi. Ularning 225 tasi kambag'al oila a'zolari hissasiga to'g'ri keladi.

"G'ijduvon" tajribasi bo'yicha 10 ta mahallada 150 dan ortiq loyihalarni ishga tushirish hisobiga 1300 ta ish o'rni yaratish borasida ish olib boryapmiz.

Bular bilan kifoyalanib qolmayis, albatta. Binobarin, Prezidentimiz mazkur videoselektor yig'ilishida "Kambag'allikni qisqartirish umumimilliy harakatga aylanadi", dedi. Bu borada oldimizda turgan muhim vazifalar ijrosi yuzasidan aniq vazifa va ko'rsatmalar berildi.

Endi har bir oila, ularning a'zolari bilan individual ishlaymiz. Buning uchun yetarlicha imkoniyat, sharoitlar bor. Faqat zimmamizdagi vazifani sidqidildan bajarib, yangi O'zbekistonning asosiy maqsadlaridan biri — xalqimizni bugungi yashayotgan kundani rozi qilishga erishishimiz shart. Bu maqsadimiz to'laonli amalga oshsa, ya'ni yurtodshlarimiz boy bo'lsa, tadbirkorlarimiz ko'paysa, o'z navbatida, iqtisodiy barqarorlik, aholi farovonligini ta'minlash kabi boshqa maqsadlarimizga erishishga ham zamin yaratiladi.

Ulug'bek MIRZAMAHAMEDOV, Oltiariq tumani kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi rahbari



YANGI O'ZBEKISTON MUALLIMLARI

*Biz bilgan farishta, chehrasida fayz,
Tolibi Farhoddir, biri esa Qays,
Siz o'sha muallim — ustoz Abu Lays,
Olamning ko'zgusi, ilm zargari,
Yangi O'zbekiston muallimlari.*

*Biringiz Forobiy, biringiz Jadid,
Bu yo'lga ko'p bora qildilar tahdid,
Ammo bukiymadi ishonch va umid,
Tan bermish dunyoning zo'r olimlari,
Yangi O'zbekiston muallimlari.*

*Hayratda Kembrij, hayratda Parij,
Naqadar ulug'vor bizning yuksalish,
Dunyoni lol etdi buyuk o'zgarish,
Bukun asqatmoqda zo'r ta'limlari,
Yangi O'zbekiston muallimlari.*

*Har yerda yangilik, innovatsiya,
Ildan boshqacha bo'lmas aksiya,
Shavkatning ortmoqda, dilda madhiya,
Ma'rifat darg'asi bor qavmlari,
Yangi O'zbekiston muallimlari.*

*Beshta tashabbusning doyasi sizdir,
Tog' bo'lsak, shu tog'lar qoyasi sizdir,
Buyuk ma'naviyat g'oyasi sizdir,
Ijod maktabidir ko'zin gavhari,
Yangi O'zbekiston muallimlari.*

*Sportda, san'atda, fanda o'zingiz,
Iqbolni balandsiz, yorug' yuzingiz,
Ishonchni oqlaydi o'g'il-qizingiz,
Siz hamon buyuksiz, dunyo sarvari,
Yangi O'zbekiston muallimlari.*

*Hamisha kasbga sodiq qolgansiz,
Ma'rifat sohibi nomin olgansiz,
Uchinchi Uyg'onish bongin chalgansiz,
Siz ila borgaymiz buyuklik sari,
Yangi O'zbekiston muallimlari.*

Ashurali BOYMUROD,
Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni YOSHLIK ORTGA QAYTSA EDI...

**Dilbar NORMURODOVA,
Termiz shahridagi 11-maktab o'qituvchisi,
"Shuhrat" medali sohibi**

"Dunyo imoratlari ichida eng ulug'ri maktabdir", deydi ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy. Darhaqiqat, bu maskanda qalb tarbiyalanadi, vatan chizgisi dilga muhrlanadi. Ushbu dargoh o'zlikni tanitadi, odamiyligni o'rgatadi.

35 yillik ish tajribasiga egaman. Bugun mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlar, yangiliklar va o'zgarishlarni ko'rib, qaytadan yana yosh bo'lib qolgim keladi. Rosti, bir paytlar maktab boshlanishi bilan paxta dalasida javlon urardik, o'quvchilarning bilan berilgan rejani bajarish uchun tongdan o'tanar edik, quyosh botganda qaytardik. So'lim kuzning bag'ridagi ajoyib bayram — 1-oktabrni ham dalada kalish olish bilan xursand bo'lib nishonlardik. Qoq yangi yil oldi xalq qolgan maktab bag'riga qaytib, jun paypoqda ham muzlab, dars berardik.

Bugun bari boshqacha, bari ko'p qunvar, dil yayrar darajada. Yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarayotgan yoshlarni ko'rib, quvonch yoshlari yuzlarimni yuvadi. Ko'nglimda hayajon, dilimda g'urur, qalbmida faxr. "Mana bizning yoshlar, mana bizning kelajagimiz", deyman.

Ha, haqiqatan, ta'lim sohasidagi ishlardan ko'zlangan maqsad yorug' mash'ala yog'dusi bilan ichimlik. Qanchadan qancha maktablar zamonaviy qiyofada, moddiy-texnik ta'minoti yangilangan. Elektron doskalar, kompyuterli sinflar, asbob-uskunaga boy laboratoriyalar, kasbga yo'naltirish uchun qulayliklarga ega sinfonalar, kuzatuv kameralari, kirish va chiqish uchun mo'ljallangan turniketlar — hali buni yana qancha davom ettirish mumkin. O'quvchilar ham, o'qituvchilar ham qoq'ozbozlikdan qutulgan, hammasi elektronlashtirildi.

Prezidentimizning "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida ham tizimda qator islohotlar belgilangan. Xususan, "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish maqsadida maktablarni toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash rejalashtirildi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimining yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar, shuningdek, yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1000 ta multimedia dasturi yaratish ko'zda tutilgan.

Maktablarga har yili 500 nafar xorijiy mutaxassis jalb etiladigan bo'ldi. Barcha maktablarda kasb-hunarga o'rgatish kurslari ish boshladi.

Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning ta'lim metodikasi barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quv jarayonlariga joriy qilinishi borasida ham qator ishlar rejalashtirildi.

Bir muallima sifatida yana bir jihat meni juda quvontiradi: yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoyalashi, ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi kafolatlandi. Bundan tashqari, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. E'tibor va g'amxo'rlik, imkoniyatlar faqat yangiliklari sari undayveradi.

Ta'lim va tarbiya — uzviy jarayon. Bu borada ham ishlar ilgari qilmog'ida. Birgina misol. Ta'lim sohasidagi indikatorlar sarhisobida Surxondaryo bir necha yil 14-o'rinni hech kimga bermay kelgan



edi, bundan shaxsan o'zim qiyinlar edim. Bugun esa 14-o'rindan 7-o'ringa ko'tarilishi izlanish va imkoniyatlardan unumli foydalanish natijasi bo'ldi.

Maktabimiz "Tashabbusli budget"da ketma-ket 2-marta g'olib bo'ldi, buning natijasida maktabning qiyofasi butunlay o'zgardi, moddiy-texnik baza yaxshilandi. Qolaversa, kasbdoshlarimizning yutuqlari ham bizni ishlagan undamoqda.

— Men "vazir ustamasi" sohibi bo'ldim, — deydi Termiz shahridagi 23-maktabning ona tili



Shukuh

"Nakurt" mahalla fuqarolar yig'ining Qo'shilish qishlog'i Payariq tumani markazidan 70 kilometr uzoqda joylashgan. Yam-yashil kengliklar, purviqor tog'lar bag'ridagi qishloqning asosiy yo'li soy yoqalab o'tadi. Yolg'izoyoq yo'lining ikki tomonida mevali va manzarali daraxtlar bo'y cho'zgan. Uzoqdan oqarib turgan mo'jazzina bino ko'zga tashlanadi.

Yaqinlarimni sog'inaman, ammo BOLALAR MEHRI SHU QISHLOQDA QOLISHGA UNDAYVERADI

Bu qishloqdagi 40-umumta'lim maktabi. 100 o'ringa mo'ljallangan maktab bahavo adirlidkda joylashgan, yuzlari qir shamoli va quyoshda qoraygan bolalar ta'lim muassasiga 3-5 kilometr yo'l bosib keladi. O'qishga ishtiyoqi baland qorako'zlar uchun masofaning ahamiyati yo'qdek go'yo. Tabiat injiqliklari ularga kor qilmaydi. Deylik, kuz va qish oylarida soy suvi ko'payishi tufayli yo'lda yurishning imkoni bo'lmay qolgan paytlarda ham bolalar ba'zan loy, ba'zan suv kechib maktabga kelgan paytlari ko'p bo'lgan. Qishloq ahlidan shu haqdagi hikoyalarni eshitir ekanman, mashhur adib Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" asaridagi mana bu bitiklar yodimga tushadi:

"Bo'lmasa tizzadan suv kechib, izg'irinda nafasimiz kesilib, shuncha uzoq joyga — tepalikka har kun qatnab, tinka-madorimizni quritishga bizni kim majbur qilardi, deysiz? Maktabga o'z ixtiyorimiz bilan havas qilib borardik. O'qishlarimga borsalarimga-chi, deb bizni qistovga oladigan hech kim yo'q edi... Dushenning darslariga quloq solib, o'qish bilan mashg'ul bo'lardik".

O'quvchi qalbiga yo'l topilgan joyda boshqa sabablar bekor. Bilimi, mehri dunyoqhalik keng ustozlar bor ekan, maktab muqaddas dargoh, ustoz esa misli shamchiroq bo'lib o'ziga chorlab turaveradi.

Yoqubovlar oilasi asli Xorazmdan. Oila boshi Qodirberdi Yoqubov uzoq yillar Xonqa tumanidagi 1-umumta'lim maktabida jismoniy tarbiyadan, turmush o'rtog'i Zumrad

Jumaniyozova esa tarix fanidan o'quvchilarga saboq berib kelgan. Hayotini maktab va o'quvchilar bilan bog'lagan o'qituvchilar haloligiga, jonkuyar va fidoyiligiga bilan e'rtasida hurmat, e'tibor qozongan.

Qodirberdi aka va Zumrad opa olis hududda ishlarni ixtiyor etganida avvaliga yaqinlari hayron bo'ldi. Ammo bir qarorga kelingan, ularning Payariq tumanidagi 40-maktabda ish boshlashi aniq bo'lgan edi.

Qishloq ahli sodda, tanti. Ular o'ziga yerlik muallimlarni katta hurmat bilan kutib oldi. Darrov ijaraga uy berildi. Qo'ni-qo'shni tez-tez xabar olib turar, o'zlari uchun tayyorlagan tansiq taomlardan ilinar, begona joyning pastu balandi haqidagi hikoyalari yangi mehmonlar uchun ham juda qiziq edi. Mehri issiq bu el yangi o'qituvchilarning qishloqqa moslashishi uchun borini ayamadi. Muallimlar ham birpasda shu yerlik odamlarga qo'shilib ketdi.

— 2022/2023-o'quv yilidan ish boshladik. Biz bu yerga kelgunga qadar tarix fanidan mutaxassis yo'qligi sabab dars o'tilmagan, — deydi Zumrad Jumaniyozova. — Bu fanni yangi metodika bo'yicha o'ta boshlaganimdan keyin nafaqat bolalar, balki ota-onalarning ham qiziqishi ortdi. Ular men bilan subhatlashish uchun maktabga tez-tez keladigan bo'ldi. O'quvchilarim fan olimpiadalariida tuman, viloyat bosqichlarida sovrinli o'rinni qo'lga kiritmoqda.

Ta'tilda Xorazmga ketib qolsak, ota-onalar, o'quvchilar telefon qilib hol-ahvol so'raydi. "Qachon kelasiz?" deya betoqat bo'ladi. Qishloq ahlining cheksiz hurmatidan boshim osmonga



yetadi. Pedagog uchun bundan katta baxt bormi? Qishloq maktabida ilk muallima ayol sifatida ish boshlagan Zumrad opa bu yerga go'yoki o'zi bilan yangi nafas olib kirdi. U pedagog sifatida bolaning hafaslasizligiga yo'l qo'yamalik uchun assosiy vazifasi ekanini yaxshi bilardi. Shu bois, tarix fani bilan birga o'quvchi qizlarga odo-axloq sirlarini ham o'rgatib boshladi. Ularning bilimga qiziqishini oshirish, kasb-hunarga

yo'naltirishga e'tibor qaratdi. Maktabda sinflar o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etildi. To'garaklar ish boshladi. Ta'limdagi o'zgarishlar, islohotlar bu maktabga ham kirib bordi. O'z ustida ishlagan, malaka oshirgan, toifaga ega bo'lgan ustozlar soni ortib borar ekan. O'qitish sifati ham yuksaldi. Yangi metodikalar qo'llanila boshlandi. Bu bolalarning bilimi va intilishlarida o'z aksini

topdi. Joriy yilda bitiruvchilarning 60 foizi oliy ta'lim muassasalariga qabul qilindi. Bundan ikki yil avval maktab "qizil" toifada edi. Ayni paytda bir necha tamoyillar asosida "yashil" maqomini oldi. Bunda, albatta, Qodirberdi aka va Zumrad opaning hissasi alohida.

— Qiyinchiliklar yo'q deb ayta olmayman. Ayol kishi emasmanmi, uyni, yaqinlarimni sog'inaman. Ammo bolalarning katta hurmat va intilishini ko'rib, shu yerda qolishim kerakligini his qilaman. Biz kelguncha qishloqda internet bo'lmagan. Bolalar telefonga o'rganmagan. Ular bilimga chanqoq. Zehni o'tkir, eshitganini ilib oladi. Farzandlarimdek bo'lib qolgan bu bolalarni tashlab ketishga ko'zim qiymaydi. Ko'zlari yonib turadigan g'og'il-qizlar orasida ertaga yurt koriga yaraydigan asl insonlar chiqishiga ishonchim komil, — deydi Zumrad Jumaniyozova.

O'qituvchilik katta fidoyilik talab etadigan kasblardan biridir. Chunki har bir o'quvchida alohida salohiyat borligini ilg'ash, uni yuzaga chiqarish katta mehnat talab qiladi. Zahmatli, ammo sharaflil bu mehnat natijasida ertaga insoniyatga nafi tegadigan olim, shifokor, uchuvchi yoki muhandis yetishib chiqishi mumkin. El orasida hurmat-e'tibor topgan qaysiki kasb egalari bor, ustoz va murabbiylarning samarali mehnati mahsulidir. Ular ertaga qanday muvaffaqiyatga erishishidan qat'i nazar, qalbining to'rida hamisha ustoz yodi, minnatdorlik tuyg'ulari hukmron bo'lishi muqarrar.

Qishloq juda xushmanzara, bu yerda hatto ekoturizmni rivojlantirish mumkin, — deydi Qodirberdi Yoqubov. — Yam-yashil yo'l, shuvillab oqayotgan soy, orqada viqor to'kib turgan tog'lar, adirlıklar har qanday sayyoh e'tiborini jalb qila oladi. Ammo kuz va qish oylaridagi yog'inlar yo'llarda noqulaylik tug'diradi. Ish boshlagan dastlabki kezarimiz 2,5-3 kilometrcha yo'lni yayov bosib o'tishga to'g'ri kelgan, nosoz yo'lda suv, loy kechgan paytimiz bo'ldi. Biz-ku, mayli, o'quvchilar qiyinlashi kerak emas. Viloyat hokimligiga shu haqda bildirdik. Yo'l ta'miri, ko'priklar qurish bugun navbati bilan qilinmoqda. Mahalliy

aholing, o'quvchilarningiz ravan yo'lda yurish orzusi ushlayotganidan xursandman.

Pedagog yosh avlod kelajagiga ta'sir ko'rsatadigan har bir muammoni o'ziga daxldor deb biladi. O'quvchisining zarur bilim va ko'nikmaga ega bo'lishiga xalal berayotgan jihatlar, yutuqlariga rag'bat beradigan omillarni e'tibordan chetda qoldirmaydi. Mamlakatimizda sport rivojiga qaratilayotgan e'tibor, o'sib kelayotgan avlodning har jihatdan sog'lom va baquvvat bo'lib voyaga yetishi yo'lidagi sa'y-harakatlar uning ham diqqat markazida. Shu sabab bolalarning sportga qiziqishini oshirishni eng katta vazifasi deb biladi.

— Bu yerga kelganimda eski, rangi o'chgan shaxmat-shashka taxtalaridan boshqa hech narsa yo'q edi, — deya so'zida davom etadi Qodirberdi muallim. — O'zim bilan birga zarur sport inventarlarini olib keldim. Bolalar futbol, voleybol, stol tennisi bilan shug'ullana boshladi. Mashg'ulotlarni kengaytirib, boshqa ko'pgina sport turlarini ham o'rgatmoqchiman. Qiziqish juda yuqori. "Besh tashabbus olimpiadasi"da tumanda sovrinli o'rinni qo'lga kiritdik.

O'qituvchining maqomi yuksak ko'rilgan jamiyatda, albatta, rivojlanish bo'ladi. Shu bois, mamlakatimizda xalq ta'limi sohasidagi islohotlarni boshlashda qo'yilgan eng katta vazifa ham jamiyatda ustozning nufuzini oshirish bo'ldi. Bugun pedagog xodimlarning mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish, ijtimoiy himoya qilish borasida e'tiborga molik ishlar qilinayapti. Turli yo'nalishlarda o'z iqtidorini namoyish etgan ustoz-murabbiylarga ustama va qo'shimcha haq to'lash mexanizmi joriy qilingan. Jumladan, Prezidentimizning tegishli qaroriga binoan, olis va chekka hududda ishlayotgan pedagoglarni moddiy rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilgan. Qahramonlarimiz ham bu imtiyozdan foydalanmoqda.

Muallimlik — ulug' maqom. Shogirdning bilimi va salohiyati qay darajadagi ustozning maqomi nechog'ligini belgilaydi. Ana shu ezigu maqsadga chekka va olis hududlarga borib ishlayotgan o'qituvchilarni esa e'tibor, ehtirom, e'zoz egasi deysizga to'la haqlimiz.

Risolat MADIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

KITOBXON JAMIYAT

MA'NAVIY TAFAKKUR ILDIZI NECHOQ'LIQ TERAN?

Zamon bilan hamnafas

Bugun dunyoda sodir bo'layotgan to'qnashuvlar ta'siri voqealardan minglarcha kilometr uzoqdagi davlatlarda ham sezilmoqda. Chunki chegaralar ham, sim to'sig' u temir-beton devorlar ham chetdan bo'ronday yog'iladigan buzg'unchi g'oyalardan saqlay olmaydi. Shu bois, hozir uyg'oq qablili va qat'iy irodali bo'lishimiz har qachongidan muhim. Bunday vaqtda ming yillik o'lmas qadriyatlardan kuch olish jamiyat, ayniqsa, yoshlarni har qanday yot, buzg'unchi g'oyalardan ishonchli himoya qiladi. Zotan, yoshlar ongida qadriyatlarga hurmat tuyg'usini mustahkamlash kelajak poydevori demakdir.

Umida TESHABOYEVA, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori

“Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq, birinchi navbatda, o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa, avvalo, insoniy tafakkurining buyuk kashfiyoti — kitob va kutubxonalar”, deya ta'kidlagan edi davlatimiz rahbari. Kitob va kitobxonlik intellektual salohiyat va imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, bilim va zehni yanada charxlashda azaldan muhim o'rin tutib kelgan. Tafakkuri, fikr doirasi keng insonlar har qanday jamiyatning chinakam boyligidir. Zero, rivojlanishning asosida ilm, kitobxon xalq turadi.



KUTUBXONALAR SONI YETARLIMI?

Jamiyat kitobxon bo'lishi uchun kutubxona faoliyati ham to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak. O'quvchi o'zi istagan vaqtda zarur kitoblarni topa olishi lozim. Mamlakatimizda kutubxonalar qaratilayotgan e'tibor zahirida ana shunday shart-sharoitlarni yaratish istagi bor.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi mamlakatdagi eng yirik majmuadir. U barcha axborot-kutubxona muassasalari uchun muvofiqshartiruvchi va uslubiy markaz hisoblanadi. Kutubxonaning umumiy fondi 8 million 108 ming 66 nusxadan iborat. Shundan bosma nashrlar 7 millondan ziyodni, elektron resurslar soni qariyb 10 ming nusxani tashkil etadi. Foydalanuvchilarning soni kundan kunga ortib bormoqda. Shu kungacha 360 ming 687 kishi kutubxona ro'yxatidan o'tgan. Kutubxona fondidan foydalanish uchun bu maskanga bir yilda o'rtacha 600 mingga yaqin kitobxon keladi.

Prezidentimizning 2019-yil 7-iyundagi “O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarori sohada katta o'zgarish yasadi. Jumladan, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, fondlarni to'ldirish va saqlash, kutubxona faoliyatini avtomatlashtirish, ilmiy tadqiqot, tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlar tayyorlash hamda xalqaro hamkorlikni

kengaytirish kabi yo'nalishlarda yuksalish imkonini berdi. Qaror bilan respublikada yuridik maqomga ega, mustaqil davlat muassasi bo'lgan 186 ta tuman (shahar) axborot-kutubxona markazi tashkil etildi. Ularning 90 dan ortig'i yangi va kapital ta'mirlangan, zamonaviy texnika va jihozlar ega binolarda aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Ayni damda qolgan axborot-kutubxona markazlari ham bosqichma-bosqich yangi binolarda faoliyat boshlashi rejalashtirilgan.

Bugun mamlakatimizda 13 mingdan ziyod axborot-kutubxona muassasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardagi universal fondlar yoshi, millati, ma'lumoti, ijtimoiy kelib chiqishi, ilmiy darajasidan qat'i nazar, barchaga birdek xizmat ko'rsatadi.

Ushbu kutubxonalar doimiy foydalanuvchilar soni 11,2 million nafarni tashkil qiladi. Ularda jami 38 million nomdagi 80 million nusxaga yaqin kitob mavjud.

MUTOLAA JAMIYATGA NIMA BERADI?

Zamonamizga kelib, mutolaaga qiziqish muayyan darajada pasaydi. Bu, albatta, global tendensiya. Ammo



muammo faqat bizda emas-ku deb jim qarab turib bo'lmaydi. Shu bois, ko'pgina mamlakatlar aholini mutolaaga qaytarish borasida o'rganishlar va amaliy ishlarga bel bog'lagan. Ha, dunyoda bolalar va o'smirlarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish uchun turli yondashuv va usullar izlanmoqda. Chunki axborot oqimi ko'paygani sari ma'lumotlarni ilming asl manbasi bilan qiyoslash, keng tafakkur ila ularni saralashga ehtiyoj ham ortmoqda.

Insonning shaxs sifatida shakllanishi ma'naviy tafakkur ildizining qanchalik chuqur va mustahkamligiga bog'liq. Bu esa o'qilgan kitobning muhim nuqtalarini ilg'ab olishdan iboratdir.



Kitob yosh avlodga ta'sir etishning eng qulay vositasi. U inson his-tuyg'usi, axloqi, xatti-harakati, dunyoqarashi rivojiga beqiyos ta'sir etadi. Ayniqsa, o'smir yoshida, ya'ni uning shakllanish davrida alohida o'rinda ega. Badiiy adabiyot, turli fanlarga doir qiziqarli kitoblar, lug'atlar, ma'lumotnomalar bolalar ma'naviyatini shakllantirishga asos bo'ladi. Shu bois, xorij mamlakatlarida ham aholini kitobxonlikka jalb etish borasida turli tajribalarga qo'l urilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada bolalar va oilaviy mutolaa davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Aholining turli qatlamlari orasida mutolaani ommalashtirish uchun bir qancha dasturlar ishlab chiqilgan.

Raqamli dunyo mahsulotlari inson hayotiga kirib borishi bilan, birinchi navbatda, kitobxonlik madaniyatida o'zgarish yuz bera boshladi. Bu o'zgarish avlodlar o'rtasidagi tafovutni yuzaga keltiruvchi omilga aylandi. Pedagog olim Ferdevs Guneshning qog'ozda o'qish odatini ekranda o'qish bilan solishtirgan ilmiy tadqiqotida raqamlashtirishning o'qish madaniyatini va odatlariga ta'siri quyidagicha umumlashtirildi: axborotga bo'lgan munosabat, uni ishlab chiqarish, olish, foydalanish va almashish usuli va jarayonida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Qidiruv mexanizmlari va veb-saytlar qidirilayotgan ma'lumotlarni topishga yordam beradi.

Kitobxonlik odatlari o'zgarishda: bolalarda mutasill mutolaani shakllantirish maqsadida shaxsiy namuna bo'lish, uyda kitob haqida suhbatlashish odati kamaydi. Ularga kitob sovg'a qilish ham deyarli yo'q. Uyda kutubxona tashkil etish, kutubxonalar, yarmarkalarga borish, mualliflar bilan uchrashuvlar kabi an'anaviy usullardan asta-sekin yoz kechilmoqda. Bu kitobxonlik odatlari ham o'zgarishni ko'rsatadi. Hozir ularning o'rini elektron pochta, ijtimoiy

tarmoqlar, matnli xabarlar va boshqalar egalladi.

Globalashuv va axborotlashuv jarayoni yanada jadallashgach, jamiyatdagi barcha faoliyatning turi, uslubi yoki tarkibi mutlaqo o'zgarishi mumkin. Bu o'zgarishlar zamonaviylik tendensiyalari sifatida baholansada, har qanday zamonaviylik bilan an'anaviylik o'rtasida uzviy, mustahkam aloqa mavjuddir. Axborot kommunikatsiyalari rivojlanib, hamma faoliyat raqamlashtirishda ham kutubxonalar faoliyat ko'rsatishda davom etadi, mutolaaning klassik namunasi saqlanib qoladi.

Bugun istalgan ma'lumotni internet orqali topishingiz mumkin. Biroq jahon axborot tarmog'i ma'lumotlarining ishonchli ekani so'roq ostida qoladi. Chunki internetda filtrlash, analiz-sintez funksiyalari yo'qligi tufayli jamiyat kitoblarga va kutubxonaga har doim ehtiyoj sezadi.

Dunyoda bo'lgani kabi yurtimizda ham o'smirlarning kitobxonligi talab darajasida emasi. Oila, maktab va kutubxonalarda kitobxonlikka e'tibor susaydi. Keyingi yillardagi o'zgarishlar sabab kitob mutolaasiga katta e'tibor qaratilishi natijasida holat ancha yaxshilandi. Birgina “Yosh kitobxon”, “Zukko kitobxon”, “Mutolaa”, “Yoshlar uchun ming kitob” kabi tanlov va loyihalar yoshlarning mutolaa madaniyatini yuksaltirdi.

Masalan, “Mutolaa” loyihasidan aniq maqsadlar ko'zlangan. Jumladan, kitob o'qish va uning targ'ibotini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yangi bosqichga olib chiqish nazarda tutiladi. Shuningdek, o'zbek va jahon adabiyotining eng sara namunalari jamlab, aholi, jumladan, yoshlar uchun elektron, audio va video variantlarda bepul foydalanish imkonini yaratish maqsad qilingan.

Ushbu loyihada Milliy kutubxona o'zining to'liq matnli axborot resurslari bilan ishtirok etmoqda. Bugungi kunda “Mutolaa” loyihasi doirasida 1100 dan ortiq kitob (badiiy asar, hikoya, ertak va ilmiy ommabop asar)ning audio va elektron variantlari tayyorlanib, mobil ilovaga joylashtirildi. Mazkur loyiha aholi, ayniqsa, yoshlar orasida ommalashib, mobil ilovadan foydalaniylmoqda.

Yana bir tashabbus O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda O'zbekiston Milliy kutubxonasi hamkorligida tashkil etilgan “Non-Fiction” loyihasidir. U orqali jahon miqosida kitobxonlar tomonidan yuqori baholangan ilmiy-ommabop asarlarni xalqimizga tanishtirish maqsad qilingan.

Bundan tashqari, tanliq yozuvchi va shoirlar, fan arboblari bilan turkum suhbatlar tashkil etilishi kitobxon millatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Lekin bu kitobxonlik hali yetarli darajada yuksalganini bildirmaydi. Bunda bolalarning nimani va qanday o'qishiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

ELEKTRON KITOBLAR SAVDOSI KO'PAYGAN

Kutubxonalar tizimini rivojlantirish, ular zamon talablariga javob beradigan bo'lishi uchun bir qator ishlar rejalashtirilgan. Axborot-kutubxona sohasining asosiy jarayoni, jumladan, jamlash, kataloglashtirish, fondlarni saqlash, axborot texnologiyalarini qo'llash, ma'lumotlar bazalari, uslubiy yordam, kadrlar malakasini oshirish sifatiga ham e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, bino va inshootlarni saqlash, texnologik park va litsenziyalı dasturiy ta'minotni yangilash, uzluksiz internetdan foydalanish, turli ijtimoiy-madaniy tadbirlarni tashkil qilish uchun mablag' ajratilmoqda.

2021-yildan buyon mamlakatimizda har yili aprel oyida “Kitobxonlik haftaligi” o'tkazib kelinmoqda. Mazkur tadbiridan ko'zlangan maqsad aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitob o'qishni keng targ'ib etish va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishdir.

Keyingi yillarda noshirlik sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni sezilarli darajada oshdi. 2024-yil 1-may holatiga ko'ra, faoliyat yuritayotgan matbaa korxonalarining 271 tasi, ya'ni 14 foizi davlat ulushiga ega. Qolgan 1660 tasi, ya'ni 86 foizi xususiy sektorga tegishli. Nashriyotlar tomonidan o'tgan yili 16 mingdan ortiq nomda jami 34 million nusxadan ziyod kitob chop etilgan.

Shu bilan birga, elektron kitoblar savdosi tobora o'sib bormoqda. 2021-yilning 18 foizini elektron kitoblar tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib, 39 foizga yetdi.


Barcha sa'y-harakatlar kitob mutolaasini rivojlantirish hamda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish uchun qilinmoqda. Yaratilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish juda zarur. Zero, kitob o'qigan inson jamiyatdagi jarayonlarga befarq bo'lmaydi. Uning qalbidagi vijdoni, yuragida ori va g'ururi bo'ladi.

Tobora virtualashayotgan davrda kitobxonlarni tarbiyalash kutubxona tizimidagi barcha mas'ullarning, ishchi-xodimlarning asosiy missiyalaridan biridir.

Milliy kontent

GLOBAL AXBOROT MAKONIDAGI ENG ZARUR EHTIYOJ

To'g'ri, haqqoniy va xolis axborotga ehtiyoj har doimgidan-da kuchayib bormoqda. Zero, mediamakoni o'z manfaatiga xizmat qiladigan axborot bilan to'yintirish orqali yoshlar ong-tafakkurini egallash holatlari kechmoqda. Bu esa hozirgi murakkab geosiyosiy jarayonda xolis, milliy manfaatlar himoyasiga qaratilgan kontent yaratishni kun tartibiga qo'yadi.



Davlatimiz rahbari joriy yil 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida milliy kontent yaratish, uni boyitish haqida mas'ullarga muhim vazifalarni belgilab bergan edi.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi tashkil etgan “Eng yaxshi milliy kontent” respublika tanlovi mazkur vazifalar ijrosiga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Milliy matbuot markazida ushbu tanlov g'olib va sovrindorlarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda so'z olganlar milliy kontent yaratishning ahamiyati, uning muhim jihatlari haqida fikr yuritdi. Jumladan, mamlakatimiz axborot

makonini mukammal, ishonchli, puxta xabarlar bilan to'ldirish, milliy kontentni mutasill boyitib borish haqida so'z bordi. Bu boradagi ishlarni tobora takomillashtirish muhimligi ta'kidlanib, mazkur tanlovni tashkil etish va o'tkazish jarayoni haqida qisqacha ma'lumot berildi.

Ma'lum qilinishicha, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan e'lon qilingan tanlovda ishtirok etib, “Aholi, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini oshirish” loyihasi bo'yicha g'olib chiqqan.



Mazkur loyiha doirasida uyushma tomonidan qator ishlar qilinmoqda. Xususan, yosh toifasidan kelib chiqib, bolalar uchun 10 nomdagi kitob nashrga topshirilgan. Qolaversa, mazkur kitoblarning audio varianti tayyorlanmoqda. “Eng yaxshi milliy kontent” tanlovi ham ana shu loyiha doirasida o'tkazildi.

Jurnalist va ijtimoiy tarmoq faollaridan ikki yo'nalishda qabul qilingan ijodiy ishlar “Kitobxonlik targ'ibotiga bag'ishlangan eng yaxshi materiallar uchun”, “Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan eng yaxshi materiallar uchun”, “Internet tarmog'ida e'lon qilingan eng yaxshi milliy kontent uchun”,

“Dolzarb mavzulardagi eng yaxshi tanqidiy-tahliliy materiallar uchun” hamda “Bolalarni kitobxonlikka qiziqitirgan blog postlari uchun”, “Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar tarbiyasiga oid e'lon qilingan materiallar uchun”, “Milliy urf-odat va an'analarimiz aks etgan eng yaxshi materiallar uchun” va “Facebook” ijtimoiy tarmog'ida milliy kontentni ko'paytirishga qo'shgan hissasiga uchun” nominatsiyalari bo'yicha baholandi.

Tanlovga taqdim etilgan ijodiy ishlar shaklan va mazmunan rang-barang ekani e'tirof etildi. Ular milliy manfaatlarimizni ko'zlangani, yurtimiz va dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga xolis baho berishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bu esa o'z-o'zidan yangi O'zbekiston ruhiga mos yangicha tafakkur tarzini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib etish orqali ularning dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Milliy kontent global axborot makonidagi eng zarur ehtiyojdir. Uni har kuni, har birimiz yaratishimiz, xalqimiz manfaatlarini himoya qilish uchun targ'ib etishimiz kerak. Shu ma'noda, milliy kontent ham vatan himoyasi kabi muhim vazifamizga aylansin. Bu esa ortga qaytmas oigan keng ko'lamdagi islohotlarda to'la va o'z vaqtida amalga oshirishimizda muhim qadamdir.

Zulxumor AKBAROVA,
jurnalist

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgor.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574.
41369 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov
Musahhib: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilibiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy